

NOZIK NUTQ INSONNING O'ZI BILMAGAN YASHIRIN VA NOZIK QOBILIYATI. ICHKI YORDAMCHI VA SEZUVCHAN HISSIYOT

Obidjonova Ruxshona Suxrobovna

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi

Tel: 95 774 31 22 email: ruxshonaobidjonova0212@gmail.com

Annotatsiya: *Insonda shunday nozik qobiliyat borki, bu qobiliyat inson hayoti davomida unga yordamchi va motivatsion kuch bo'lib xizmat qiladi. Hayot yo'limizda sodir bo'layotgan har qanday voqelik bejizga emas. Har qanday yomonlik ortida yaxshilik yotadi, har qanday taqdir ortida bir insonning hayot yo'lidagi qiyinchiliklari yotadi, har bir soniya bekorga ketmaydi, har bir yurak bekorga urmaydi, har bir taqdir ortida ulkan hikmat yotadi. Demoqchi bo'lganim, har bir ishga insonning o'zi sababchi bo'ladi, o'z hayotini o'zi qurdimi, demak uni ma'lum bir rishta va ichki tuyg'ulari asosida ko'ngliga qarab, yurak amriga binoan shu ishga qo'l uradi. Insoning bunday ichki tuyg'usini boshqarishi o'ziga bog'liq holatdir, biror joyga bormoqchi bo'lsak, ba'zan oyog'imiz tortmaydi, biror ishga qo'l urmoqchi bo'lsak, bu ish ortida yomonlik yoki yaxshilik turishini sezib turamiz, kimbilandir gaplashganda uning qanday insonligini so'zlashishidan yoki yurish - turishidan sezib turamiz-u, u bilan shunga qarab gapirishimiz, yaqinlashishimiz yoki uzoqlashishimiz ham shu ichki tuyg'u retseptorlari tomonidan berilgan signallar buyrug'iga asoslangan holat emasligini sezib turamiz, chunki bu insonning ich-ichidagi uyg'unmay qolgan yoki yashiringan sehrgarlik desak ham adashmaymiz. Uning ichki dunyosida yotuvchi bu kuchni sezuvchanlik, biror voqea-hodisani oldindan ko'ra bilish yoki biror bir ishni qilishdan oldin shu ishni qilishga botinolmasligi, ya'ni shu ishni qilishga ko'ngli yo'l bermaganligi haqidagi harakat va holatlar ham ayni shu kuchning ichki o'chog'idir. Alloh tomonidan berilgan bunday qobiliyat hammada ham bo'lavermaydi, agar bunday qobiliyat sizda bo'lsa, demak siz dunyodagi eng baxtli insonsiz, chunki siz har bir ishni boshlashingiz mobaynida sizga bu ishning oqibati salbiy yoki ijobiy bo'lishini aytib turuvchi ichki hissiyot yotadi va bu hissiyot sizning omad kalitingiz bo'lib xizmat qiladi. Sizda ham yuqorida ta'kidlab o'tgan xususiyatlar bor bo'lsa, ajab emas. Agar bunday xususiyat sizda bo'lsa, uni shunday asrangki, u sizni hech qachon tark etmasin. Bizning yuqorida aytib o'tgan ayrim hayotiy misollarimiz bu xususiyatning ulkan ummondan bir tomchi suv olgandek gap, buni davom ettirish sizga bog'liq ushbu maqolani yozishimdan maqsad, siz azizlarga oz bo'lsada motivatsion kuch berish uchun harakat qildim, demoqchi bo'lganim bu xususiyatingizni hech qachon tashlab qo'ymang unga quloq soling, u har damda sizga yordam beradi. "Alloh" bergan bunday nozik nutq hammaga ham berilavermaydi, agar sizda shunday xususiyat bo'lsa, siz o'zingizni dunyodagi eng baxtli odam ekanligingizni yana bir bor ich-ichingizdan sezasis.*

Kalit soʻzlar: *Tuygʻu, ichki kechinmalar, ichki hissiyot, sehrGARlik, Alloh tomonidan berilgan yashirin qobiliyat, omad kalitiga olib boruvchi yoʻl.*

Hayot inson uchun bir marta berilgan eng shirin neʼmatlardan biridir. Har bir inson shu dunyoga kelibdiki, hayotning totli va achchiq sirlaridan voqif boʻladi. Hayot shunchalar sirliki, uni bir dengiz tubidagi ummonga qiyoslaydigan boʻlsak, bu dengizning koʻrinishi juda ham chiroyli boʻlishi mumkin, ammo uning tubi qandayligini bilmaymiz. Agar ummon tubidagi hayotga koʻnikkan boʻlsak, uning goʻzalliklaridan xabardor boʻlsak, uning yuzasi qandayligini bilmaymiz. Shunday ekan bu foniyl dunyoda inson zoti bilmaydigan ancha koʻp sir-u asrorlar borligini sezadi. Har bir inson hayoti davomida hayotning achchiq-chuchuklarini totib koʻrar ekan, hayotning qanchalar shirin yoki achchiqligini sezadi. Bunday vaziyatlarda insonning goh yashagisi goh bu dunyoni tark etgisi keladi, lekin har qanday qiyinchilik va azob ortida totli hayot va shirin orzular roʻyobi yotganligini sezmaydi. Baʼzan kishilarga aql oʻrgatamiz-u, lekin oʻsha aqlga oʻzimizning boʻysungimiz kelmay qoladi, baʼzan qilayotgan ishimiz xato ekanligini sezib tursakda, oʻsha xatoni bilib turib qilamiz, aytingchi biz shu payt toʻgʻri ish tutgan boʻlamizmi? Bunday savollar juda koʻp, lekin ularga javob beradigan odamning oʻzi topilmay qoladi.

Ushbu maqolamni nozik nutq deb atashimdan maqsad, inson qalbida yotuvchi ayrim xislatlar hali nomlanmagan. Yaʼni insonning ichki tuygʻulari bu uning tashqi yurish-turishiga taʼsir koʻrsatadigan nozik tuygʻulardan biri hisoblanadi. Insonda shunday sezuvchan qobiliyat borki, bunday qobiliyatni baʼzida insonning oʻzi ham bilmay qoladi. Inson hayoti davomida malum bir ishni bajarishidan oldin, uni oqibatini oʻylaydi, qanday tugashini, nima boʻlishini oʻylash bilan birga baʼzi paytlarda tavakkalga ham qoʻl uradi. Tavakkalga qoʻl urgan odam asosan yurak amriga boʻysunadi. Yurak amriga quloq slogan odamlarning hamma ishlari doimo oldinda boʻladi, chunki ular buni oldindan sezishadi, men shu ishni bajarsam, ishim gullaydi yoki ishimning oxir yaxshi boʻladi deb umid qilishadi, orzu qilishadi, eng muhimi esa ular oʻzlariga, yurak amrlariga va Allohga ishonishadi. Shuning uchun ham bunday tavakkalchi odamlar hayotda koʻpincha yutuqlarga erishishadi, ular oʻzlarining qalb amrlariga quloq solib, eng muhimi oʻzlariga boʻlgan ishonchlari tufayli ham bunday ulkan yutuqlarga erishishadi. Toʻgʻri, hammavaqt ham qalb amriga boʻysunib ish olib borish boʻlmaydi, lekin ayrim paytlarda shuning oʻzi ham kifoyalik qiladi.

Bizning ichimizda shunday xislat borki, buni oʻzimiz ham sezmaymiz. Bu hissiyotni folbinlikka yoyasizmi yoki sehrGARlikka bu oʻzingizga bogʻliq. Lekin siz ham shu hissiyotingizni roʻyobga chiqarishga urining, balki bu xususiyat allaqachon sizda bordir, buni esa maqolamizning davomida bilishga harakat qiling. Demak, buni isbot qilish uchun bir nechta hayotiy faktlarga toʻxtalib oʻtamiz.

Hayotga yosh bolaning ko'zi bilan qaraydigan bo'lsak, uning hayotda yashashi uchun aniq bir maqsadi bo'lmaydi, malum bir narsadan zavq olib yashaydi, uning uchun shu bugun u xohlagan do'sti yoki yemoqchi bo'lgan muzqaymog'i bo'lsa bas. Ertangi kunni o'ylamaydi. Hayotning har bir lahzasidan zavq olib yashaydi, beg'ubor ko'ngli bilan hammaning yurak to'ridan joy oladi. "Yosh bolaning duosi tez ro'yo bo'ladi, u Allohdan nimani so'rasa, Alloh unga har qanday ne'matidan beraveradi, chunki yosh bolada gunoh bo'lmaydi, uning beg'ubor qalbi hatto sahroni ham gullatadi" degan gaplarni eshitgan bo'lsangiz ajab emas, bizning bolaligimizdan ichimizda shunday yordamchi kuchimiz bo'ladiki, u bizga nima yaxshi-yu nima yomonligidan tortib, qilayotgan ishimizning qanday yakun topishigacha bizning ko'nglimizga soladi, har qanday kunimizda yonimizda bo'ladi, bunday xususiyatni odamlar yurak amriga bo'ysunish deb ham atashadi, lekin yurak amri boshqa bu xususiyat boshqadir. Keling, bu ikki tushunchani farqlashga urinamiz. Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan yashirin ichki xususiyatimizni "Nozik nutq" deb ataymiz, har qanday odamning u xoh yomon bo'lsin, xoh yaxshi, o'z fikri va yurish-turishi bo'ladi, demak, uning yurak amriga bo'ysunishi o'ziga bog'liq xislatidir, xohlasa aql bilan xohlasa yurak amri bilan ish tutadi. Bundan kelib chiqadiki, yurak amriga bo'ysunish uchun insonning yoshi va yaxshi yomonligiga qaramaydi, bu xususiyat inson umrining oxirigacha uning yonida bo'ladigan xislatidir. Lekin biz yuqorida ta'kidlab o'tgan, nozik ichki yordamchi kuch hammadam ham bo'lmaydi, yoshimiz kattalashgani sari, u bizdan uzoqlashadi yoki yanada yaqinlashadi, bunday xususiyat faqatgina sof go'ngilli, diyonatli, birovning haqqiga xiyonat qilmaydigan, ota-onasining solih yoki soliha farzandi bo'lgan va eng muhimi Allohning suygan bandasi bo'lgan odamlardagina uchraydi. Yuqorida biz bejizga yosh bolalar haqida so'z ochmadik, yosh boladan so'z ochganimizning sababi shundaki, yosh bolada gunoh bo'lmaydi, u yomonlik qilishni bilmaydi, toki kattalar unga o'rgatishmasin, uning beg'ubor qalbi har qanday yovuzlikni eritib yuboradi, shuning uchun ham, kichkina bolalarda bunday ichki nozik xususiyat kuchli bo'ladi, shuning uchun ham, kattalarimiz "Yosh bolaning duosi tez ro'yo bo'ladi" deb aytishadi.

Biror joyga borishingiz kerak, deylik mehmonchilikka bormoqchisiz "Shu kuni borgim kelmayapti, ertaga borarman" deb borigingiz kelmay qolgan paytlar bo'lganmi?, yoki biror ishni boshlashdan oldin ichingizda sizga "Shu ishni boshlasang, ishing yaxshi bo'lib ketadi yoki aksincha" deydigan ichki nutq sizda bormi? Yaxshilab e'tibor bering, ba'zan siz o'zingiz bilan o'zingiz gaplashib, "Nega bunday ish qildim, nega mana shu so'zni o'z o'rnida qo'llay olmadim, nega shu ishni boshladim, axir ko'nglim sezgandiku bu ishning oxiri nima bo'lishini" degan so'zlar bilan o'zingizga murojaat qilganmisiz? Bunday qilgan murojaatlaringiz bu sizning ichki nutqingizdir, biz boya aytib o'tgan nozik nutq xuddi ana shu nutqdir. Ba'zi paytlarda, hatto tushimizda ham hayotiy ro'yolarni ko'ramiz, shunday odamlar borki, ularning kecha ko'rgan tushlari bugun ro'yo bo'ladi, bu ularga

yordamchi ichki xususiyatni shakllantiradi. Ular ko'rgan tushlarini o'z hayotlari bilan bog'lab, hayotda adashmaslikka harakat qiladilar, ba'zan ular ko'rgan tush ularning yoki yaqinlarining hayotini saqlab qolsa ham ajab emas.

Sizda ham yuqorida ta'kidlab o'tgan xususiyatlar bor bo'lsa, ajab emas. Agar bunday xususiyat sizda bo'lsa, uni shunday asrangki, u sizni hech qachon tark etmasin. Bizning yuqorida aytib o'tgan ayrim hayotiy misollarimiz bu xususiyatning ulkan ummondan bir tomchi suv olgandek gap, buni davom ettirish sizga bog'liq ushbu maqolani yozishimdan maqsad, siz azizlarga oz bo'lsada motivatsion kuch berish uchun harakat qildim, demoqchi bo'lganim bu xususiyatingizni hech qachon tashlab qo'ymang unga quloq soling, u har damda sizga yordam beradi. "Alloh" bergan bunday nozik nutq hammaga ham berilavermaydi, agar sizda shunday xususiyat bo'lsa, siz o'zingizni dunyodagi eng baxtli odam ekanligingizni yana bir bor ich-ichingizdan sezasiz.

ADABIYOTLAR:

1. Yozilgan har bir fikr o'zimga tegishli, adabiyotlardan foydalanmaganman, shunchaki hayotiy voqealarni eshitib, ularni tahlil qilib, ular ichidan sizga o'zim bilgan va duch kelganlarimni qog'ozga tushirdim.